

**EFTALIYLARNING SOSONIYLAR, KIDARIYLAR VA TURK
XOQONLIGI BILAN SIYOSIY-HARBIY MUNOSABATLARI**

Maxmudova Nigoraxon Maxsudjon qizi

AIFU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada eftaliylarning Sosoniylar, kidariylar va keyinchalik Turk xoqonligi bilan olib borgan siyosiy-harbiy munosabatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda IV–VI asrlarda Markaziy Osiyo va Sharqiy Eron hududlarida shakllangan murakkab geosiyosiy vaziyat yoritilib, xioniylar, kidariylar va eftaliylar ishtirokidagi kuchlar muvozanati ochib beriladi. Shuningdek, Shopur II davridagi sharqiy yurishlar, Amida qamali, Bahrom V, Yazdigerd II, Pero‘z va Kavad davrlaridagi voqealar asosida Sosoniylarning sharqiy siyosati hamda eftaliylarning bosqichma-bosqich yuksalishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada eftaliylarning dastlab kidariylar hukmronligidan qolgan siyosiy bo‘shliqni to‘ldirgani, keyinchalik Sosoniylar ustidan ustunlikka erishgani, ammo VI asr o‘rtalarida Turk xoqonligi va Sosoniylar ittifoqi natijasida markazlashgan davlat sifatidagi mavqeini yo‘qotgani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: eftaliylar, Sosoniylar, kidariylar, xioniylar, Turk xoqonligi, Shopur II, Pero‘z, Kavad, Toxariston, Baqtriya, Amida, Markaziy Osiyo.

Аннотация. В данной статье анализируются политико-военные отношения эфталитов с Сасанидами, кидаритами и позднее с Тюркским каганатом. В исследовании освещается сложная геополитическая ситуация, сложившаяся в IV–VI веках на территории Центральной Азии и Восточного Ирана, а также раскрывается соотношение сил с участием хионитов, кидаритов и эфталитов. Наряду с этим на основе событий эпохи Шапура II, осады Амиды, а также правления Бахрама V, Йездигерда II, Пероза и Кавада анализируются восточная политика Сасанидов и поэтапное возвышение эфталитов. В статье обосновывается, что эфталиты сначала заполнили

политический вакуум, оставшийся после ослабления власти кидаритов, затем добились превосходства над Сасанидами, однако в середине VI века в результате союза Сасанидов и Тюркского каганата утратили положение централизованного государства.

Ключевые слова: эфталиты, Сасаниды, кидариты, хиониты, Тюркский каганат, Шапур II, Пероз, Кавад, Тохаристан, Бактрия, Амида, Центральная Азия.

Abstract. This article analyzes the political and military relations of the Hephthalites with the Sasanians, the Kidarites, and later the Turkic Khaganate. The study highlights the complex geopolitical situation that emerged in Central Asia and Eastern Iran during the fourth to sixth centuries, revealing the balance of power among the Chionites, Kidarites, and Hephthalites. It also examines the eastern policy of the Sasanians and the gradual rise of the Hephthalites on the basis of events connected with Shapur II, the siege of Amida, and the reigns of Bahram V, Yazdegerd II, Peroz, and Kavadh. The article argues that the Hephthalites first filled the political vacuum left by the decline of Kidarite rule, later achieved supremacy over the Sasanians, but in the mid-sixth century lost their position as a centralized state as a result of the alliance between the Sasanians and the Turkic Khaganate.

Keywords: Hephthalites, Sasanians, Kidarites, Chionites, Turkic Khaganate, Shapur II, Peroz, Kavadh, Tokharistan, Bactria, Amida, Central Asia.

Kirish. Markaziy Osiyo ilk o'rta asrlar tarixida eftaliylarning siyosiy maydonga chiqishi va ularning Sosoniylar, kidariylar hamda keyinchalik Turk xoqonligi bilan olib borgan munosabatlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki aynan tashqi siyosiy va harbiy kurashlar eftaliylar davlatining shakllanishi, hududiy kengayishi, mintaqaviy ustunlikka erishishi va so'nggi bosqichda

zaiflashib borishini belgilab bergan. Eftaliylar maydonga kelgan davrda Markaziy Osiyo va Sharqiy Eron hududlarida siyosiy vaziyat nihoyatda murakkab bo'lib, bu makonda Sosoniylarning sharqiy bosimi, kushoniy siyosiy meros, xioniylar va kidariylarning faolligi bir-biri bilan chambarchas tutashib ketgan edi.

Sosoniylar davlati tashkil topganidan keyin Eron hukmdorlari sharqiy viloyatlar ustidan nazoratni saqlashga va mustahkamlashga intildilar. Biroq IV asrga kelib So'g'd, Baqtriya, Toxariston va ularga tutash hududlarda yangi harbiy-siyosiy kuchlar maydonga chiqa boshladi. Avval xioniylar, keyin kidariylar va nihoyat eftaliylar aynan shu siyosiy makonda kuchayib, mintaqadagi kuchlar nisbatini tubdan o'zgartirdi. Shu tariqa sharqiy hududlar uchun kurash Sosoniylar tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishiga aylandi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, eftaliylarning Sosoniylar, kidariylar va Turk xoqonligi bilan munosabatlarini o'rganish orqali IV–VI asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy transformatsiyalar, hududiy kuchlar muvozanati va davlatlararo kurashlarning tarixiy mexanizmlarini chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Ayniqsa, eftaliylarning dastlabki shakllanish bosqichida xioniylar va kidariylar bilan tutashgan siyosiy muhitni, keyinchalik Pero'z va Kavad davridagi Sosoniy–eftaliy qarama-qarshiligini, nihoyat Turk xoqonligi aralashuvi natijasida yangi siyosiy davrning boshlanishini tahlil qilish Markaziy Osiyo tarixining muhim sahifalarini yoritishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Sosoniylar davlati Ardashir I davridan boshlab Markaziy Osiyoning janubiy hududlariga katta e'tibor qaratdi. Bu viloyatlar nafaqat harbiy-strategik nuqtai nazardan, balki iqtisodiy va savdo jihatidan ham alohida ahamiyatga ega edi. Shu bois Sosoniy hukmdorlar Baqtriya, Toxariston va unga tutash hududlarda o'z ta'sirini mustahkamlashga intildilar. Biroq IV asrga kelib sharqiy hududlarda yangi siyosiy kuchlar paydo bo'la boshladi. Xususan, xioniylar So'g'd va unga yaqin hududlarda faol harakat qilgan bo'lsa, keyinchalik kidariylar va eftaliylar ham ayni siyosiy makonda kuchaya bordi [2; 3].

IV asr o'rtalariga kelib Sosoniylar bilan xioniylar o'rtasidagi qarama-qarshilik keskinlashdi. Xioniylarning So'g'd hududiga kirib kelishi va ularning sharqiy viloyatlardagi bosimi Sosoniylarni uzluksiz harbiy yurishlar uyushtirishga majbur qildi. Shopur II hukmronligi aynan ana shu sharqiy urushlar bilan xarakterlanadi. Yozma manbalarda qayd etilishicha, u sharqiy qabilalar bilan uzoq davom etgan to'qnashuvlardan so'ng 358-yilda sulh tuzishga majbur bo'lgan [2]. Mazkur sulh Sosoniylarning sharqiy chegaralarda xioniylar kuchini tan olganini ko'rsatuvchi muhim siyosiy voqea bo'ldi.

Sulhdan so'ng xioniylar bilan Sosoniylar o'rtasida vaqtinchalik harbiy ittifoq yuzaga keladi. Bu hol 360-yilda Amida qamalida yaqqol namoyon bo'lgan. Shopur II Rimga qarshi yurishda xioniylarni o'z ittifoqchisi sifatida jalb etgan. Demak, Markaziy Osiyodagi ko'chmanchi-harbiy kuchlar bilan Sosoniylar munosabati doimo faqat dushmanlik asosida kechmagan; ayrim vaziyatlarda ular muayyan strategik manfaatlar yo'lida o'zaro ittifoq tuzishga ham majbur bo'lgan [2]. Bu jarayonda xioniylar mustaqil siyosiy subyekt sifatida maydonga chiqqani seziladi.

Amida qamali bilan bog'liq voqealar sharqiy ittifoqchilarning siyosiy va harbiy salohiyatini yanada aniqroq ko'rsatadi. Ammianus Marcellinusning yozishicha, qamal paytida xioniylar podshosi Grumbatning o'g'li halok bo'lgan va bu hodisa xioniylar orasida katta motam hamda qasos kayfiyatini yuzaga keltirgan [2]. Natijada ular janglarda yanada keskin va qat'iy harakat qilganlar. Ushbu voqea bir tomondan xioniylarning Sosoniylar bilan real harbiy ittifoqda bo'lganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan sharqiy hukmdorlar allaqachon mintaqaviy siyosatda tan olingan mustaqil kuchga aylanganini anglatadi. Keyingi baqtriy hujjatlarda uchraydigan ayrim nomlar bilan Grumbat ismi o'rtasidagi o'xshashlik ham hunn-xioniy unsurlar mahalliy siyosiy muhitga singib borganini ko'rsatadi [1].

IV asrning ikkinchi yarmi va oxirlariga oid manbalarda Shopur II ning "kushonlar" bilan urushlari haqida ham xabarlar uchraydi. Biroq bu davrga kelib

klassik Kushon siyosiy tizimi allaqachon zaiflashgan edi. Shu bois ko'plab tadqiqotchilar manbalardagi "kushonlar" atamasi ostida amalda xioniylar yoki kidariylar nazarda tutilgan bo'lishi mumkinligini qayd etadilar [3]. Bu esa sharqiy siyosiy maydonning murakkabligini ko'rsatadi: unda sobiq kushoniy meros, xioniylar va kidariylar bir-biridan qat'iy ajralmagan holda namoyon bo'lgan.

Aynan shu davr Markaziy Osiyoda siyosiy vorislik uchun kurash kuchaygan bosqich edi. Sobiq Kushon-Sosoniylar hududlari va iqtisodiy makoni ustidan nazorat uchun bir necha kuch da'vogarlik qilayotgan edi. Kidariylar ana shu jarayonda alohida rol o'ynadi. Ular Baqtriya, Kobul va Gandhara atrofida faol siyosiy kuch sifatida namoyon bo'lib, ayrim tangalarda "Kushonshoh" unvonini saqlab qolgan holda o'z hokimiyatini qonuniylashtirishga uringanlar [11]. Bu esa sharqiy hududlardagi kurash faqat harbiy emas, balki siyosiy vorislik xarakteriga ham ega bo'lganini ko'rsatadi. Kidariylar shu tariqa eftaliylar maydonga chiqishidan oldingi siyosiy bo'shliqni to'ldirgan asosiy kuchlardan biriga aylandi [6].

V asrga kelib eftaliylar aynan shu murakkab siyosiy raqobat ichidan ajralib chiqib, tobora mustaqil va qudratli kuchga aylana boshlaydi. Ular dastlab Toxariston va unga tutash hududlarda siyosiy tayanch yaratib, keyinchalik Sharqiy Eron hamda Shimoliy Hindiston yo'nalishida ham faol ta'sir ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotchilar ularning mustaqil siyosiy kuch sifatida shakllanishini IV asr oxiri yoki V asr boshlariga taalluqli deb hisoblaydi [6]. Biroq qat'iy sana haqida ilmiy adabiyotda yakdillik bo'lmasa-da, V asr birinchi yarmiga kelib ular sobiq Kushon-Sosoniylar merosi ustidan nazorat uchun kurashayotgan asosiy kuchlardan biriga aylangani shubhasizdir.

Bahrom V Gor davridagi sharqiy voqealar Sosoniylar bilan sharqiy ko'chmanchi-siyosiy kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshilikning yangi bosqichini boshlab beradi. Arab-fors manbalarida bu urushdagi raqib ko'pincha "turklar" nomi bilan tilga olinadi. Biroq bu atama VI asrdagi Turk xoqonligini emas, balki Sharqiy Eron va Markaziy Osiyo oralig'ida faol bo'lgan hunnlashgan yoki

ko'chmanchi-siyosiy guruhlarining umumlashgan nomi bo'lishi mumkin [7]. Shuning uchun tadqiqotchilar bu yerda xioniylar, kidariylar yoki eftaliylar nazarda tutilgan bo'lishi ehtimolini ilgari suradilar. Qaysi guruh bo'lishidan qat'i nazar, voqealar shuni ko'rsatadiki, V asrning birinchi yarmidayoq sharqiy harbiy-siyosiy kuchlar Sosoniylar uchun jiddiy tahdidga aylangan edi.

Bahrom V bilan bog'liq rivoyatlarda dushman qo'shinining Marvgacha kirib kelgani, shohning esa kutilmagan zarba bilan hujum qilgani hikoya qilinadi. Rivoyat tafsilotlarida mubolag'a mavjud bo'lsa-da, tarixiy yadrosi saqlanib qolgan: Sosoniylar sharqiy chegaralarni vaqtincha barqarorlashtirishga muvaffaq bo'lgan, biroq Amudaryoning shimolidagi hududlarni to'liq egallab olganlari haqidagi xabarlar ishonchli emas [7]. Shunga qaramay, Marv, Amul, Balx, Huttal, Buxoro va Chag'oniyon kabi hududlar uchun kurashning o'ta keskin bo'lgani ravshan.

Yazdigerd II davrida sharqiy yo'nalishdagi kurash yanada kuchaydi. Arman muallifi Yegishening ma'lumotlariga ko'ra, Yazdigerd II sharqiy dushmanlarga qarshi ketma-ket yurishlar uyushtirgan, biroq dastlab ularga hal qiluvchi zarba bera olmagan [9]. Keyinchalik u sharqiy viloyatlarda uzoq vaqt qarorgoh tutishga va harbiy kuchlarini qayta safarbar etishga majbur bo'lgan. Bu hol Sosoniylarning sharqdagi raqiblari tasodifiy bosqinchi emas, balki mustahkam siyosiy-harbiy tuzilmalarga ega bo'lganini ko'rsatadi. Ayrim xabarlarda "Tetal"ga yaqin shakllarning uchrashi hamda joy nomlarining qayd etilishi eftaliylar V asr o'rtalariga kelib Sosoniylar uchun bevosita xavf tug'dirgan bo'lishi mumkinligini anglatadi [9].

Sharqiy yo'nalishdagi tahdidlar Sosoniylarning mudofaa siyosatida ham aks etgan. Kaspiybo'yi va Gurgon hududidagi mudofaa devorlari, Kopetdog' etaklaridagi istehkomlar hamda Marv atrofidagi mudofaa tizimlari sharqiy bosimga qarshi qurilgan [8]. Sosoniylarning sharqiy siyosati faqat hujumkor yurishlardan iborat bo'lmay, himoyaviy strategiyani ham o'z ichiga olgan.

V asrning ikkinchi yarmiga kelib eftaliylar sharqiy siyosiy maydonda aniq va qudratli kuch sifatida ajralib chiqadi. Ular dastlab Toxariston va sharqiy Baqtriyada mustahkamlangan bo'lsa, keyinchalik Kobul vodiysi va Shimoliy Hindiston tomonga ham kengaya boshladi. Xitoy manbalarida ularning 456-yildan boshlab Shimoliy Vey saroyiga elchilar yuborgani qayd etiladi [10]. Bu esa eftaliylarning shu davrga kelib xalqaro siyosatning mustaqil subyektiga aylanganini ko'rsatadi.

Eftaliylar bilan Sosoniylar o'rtasidagi qarama-qarshilik ayniqsa Pero'z davrida eng yuqori nuqtaga yetadi. Dastlab Pero'z o'z ukasi Hormizdga qarshi kurashda sharqiy ittifoqchilardan, ehtimol eftaliylardan yordam olgan [12]. Bu holning o'zi eftaliylarning V asr o'rtalariga kelib Sosoniylar ichki taxt kurashlariga ham ta'sir ko'rsata oladigan qudratli siyosiy kuchga aylanganini bildiradi. Taxtga chiqqach, Pero'z sharqiy yo'nalishda o'z siyosatini faol davom ettirdi, biroq eftaliylarga qarshi yurishlarda ketma-ket muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Manbalarga ko'ra, Pero'zning birinchi yurishida u eftaliylar tomonidan tort-mor etilib, asirga tushgan va katta miqdordagi kumush evaziga ozod etilgan [12]. Bu hol eftaliylarning nafaqat harbiy qudratini, balki siyosiy mavqegini ham ko'rsatadi. Chunki ular endi oddiy chegaradosh ko'chmanchi kuch emas, balki Sosoniy hukmdorini tovon to'lashga va muzokara yuritishga majbur eta oladigan davlat darajasiga ko'tarilgan edi. Keyingi yurishlarda ham Pero'z muvaffaqiyat qozona olmadi. Nihoyat 484-yildagi uchinchi yurish halokat bilan tugadi. Pero'z va uning katta qo'shini eftaliylar tomonidan tayyorlangan harbiy tuzoqqa tushirilib yakson qilindi [12].

Pero'zning halokati eftaliylar tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Aynan shu g'alabadan so'ng ular butun mintaqadagi eng qudratli siyosiy kuchlardan biriga aylandi. Sosoniylar esa sharqiy siyosatda uzoq muddat mudofaa holatiga tushib qoldilar. Balash va keyinroq Kavad davrida Sosoniylarning sharqiy siyosati ma'lum darajada eftaliylar bilan hisoblashish va ularga qaramlik sharoitida olib

borildi [12]. Ayrim yozma manbalar va numizmatik materiallar Sosoniylarning eftaliylarga tribut to'lab turganini ko'rsatadi [11; 12].

Kavad davrida eftaliylarning Sosoniylar ichki siyosatiga ta'siri yanada yaqqol ko'rinadi. 496-yilda Kavad taxtdan ag'darilgach, eftaliylar huzuriga qochib boradi va keyinchalik ularning harbiy yordami bilan taxtni qaytarib oladi [12]. V asr oxiri va VI asr boshlarida eftaliylar nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Sosoniylar davlatining ichki siyosiy muvozanatida ham hal qiluvchi omilga aylangan. Hatto 502–506-yillardagi Vizantiyaga qarshi urushlarda ham eftaliylarning Sosoniy qo'shinlari tarkibida ittifoqchi sifatida qatnashgani qayd etiladi [12]. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar faqat dushmanlik bilan cheklanmaganini, ayrim davrlarda vaqtinchalik harbiy hamkorlik shakliga ham kirganini ko'rsatadi.

Eftaliylarning kidariylar bilan munosabati ham ularning yuksalishida muhim rol o'ynagan. Voqealar rivojidan ko'rinadiki, eftaliylar kidariylar hukmronligi zaiflashgan hududlarda ustunlikni qo'lga olib, Toxariston va keyinroq Gandhara tomon kengaya boshlaydi. Bu jarayon bosqichma-bosqich kechgan. Dastlab ular shimoliy va markaziy hududlarda tayanch yaratib, keyinchalik kidariylarning janubiy siyosiy makonini ham egallashga kirishgan. Natijada kidariylar sobiq Kushon-Sosoniy hududlaridagi mavqeini yo'qotib, eftaliylar Markaziy Osiyoning janubiy qismida yetakchi kuchga aylandi [6; 11]. Shu jihatdan eftaliylar kidariylar hukmronligidan qolgan siyosiy bo'shliqni to'ldirgan asosiy kuch sifatida baholanishi mumkin.

VI asr o'rtalariga kelib esa eftaliylar uchun yangi va nihoyatda kuchli raqib maydonga chiqdi. Bu Turk xoqonligi edi. Dasht mintaqalarida kuchaygan turklar qisqa vaqt ichida Markaziy Osiyoning shimoliy va sharqiy hududlarida ustunlikni qo'lga kiritdilar. Bu vaqtda eftaliylar hali ham Toxariston, So'g'd va ularga tutash hududlarda katta siyosiy ta'sirga ega edilar. Biroq Turk xoqonligining tezkor harbiy yuksalishi butun mintaqadagi kuchlar muvozanatini tubdan o'zgartirib yubordi. Turklarga qarshi yolg'iz kurash olib borish qiyinligini anglagan

Sosoniylar ular bilan ittifoq tuzib, eftaliylarga qarshi qo'shma harbiy harakat boshladilar [12].

Turklar va Sosoniylar ittifoqi eftaliylar davlati tarixidagi hal qiluvchi bosqich bo'ldi. Taxminan 560-yillar atrofida yuz bergan janglar natijasida eftaliylar davlati qattiq zarba oldi va uning siyosiy birligi yemirila boshladi [12]. Bu mag'lubiyatdan so'ng eftaliylar markazlashgan yirik davlat sifatidagi mavqeini yo'qotdi. Ularning ayrim hududlari Turk xoqonligi ta'siriga, boshqalari esa Sosoniylar nazoratiga o'tdi. Shunga qaramay, eftaliylar bilan bog'liq siyosiy an'ana va ayrim mahalliy hukmdorlik shakllari darhol yo'q bo'lib ketmadi. Ayrim viloyatlarda eftaliylar bilan bog'liq sulolaviy yoki siyosiy unsurlar keyingi davrlarda ham yashab qolgan.

Eftaliylarning Sosoniylar, kidariylar va Turk xoqonligi bilan munosabatlari ularning tashqi siyosatida markaziy o'rin egallagan. Dastlab xioniylar va kidariylar bilan bog'liq murakkab siyosiy makonda shakllangan eftaliylar V asrga kelib Sosoniylar uchun eng xavfli raqibga aylandi. Pero'z ustidan qozonilgan g'alabalar ularning qudratini eng yuqori cho'qqiga olib chiqdi. Biroq VI asr o'rtalariga kelib Turk xoqonligi va Sosoniylar ittifoqi eftaliylar davlatining harbiy-siyosiy ustunligiga barham berdi. Bu jarayon Markaziy Osiyo tarixida bir siyosiy davr tugab, yangi turkiy-siyosiy bosqich boshlanayotganini anglatadi.

Xulosa. IV–VI asrlarda eftaliylarning Sosoniylar, kidariylar va Turk xoqonligi bilan olib borgan siyosiy-harbiy munosabatlari Markaziy Osiyo va Sharqiy Eron tarixida kuchlar nisbatining keskin o'zgarishiga sabab bo'lgan muhim omillardan biri bo'ldi. Dastlab sharqiy siyosiy maydonda xioniylar va kidariylar yetakchi rol o'ynagan bo'lsa, keyinchalik eftaliylar ana shu murakkab siyosiy makondan ajralib chiqib, mustaqil va qudratli davlatga aylandilar. Shu tariqa ular sobiq Kushon-Sosoniylar hududlarida shakllangan siyosiy bo'shliqni to'ldirib, mintaqaviy ustunlikka erishgan asosiy kuchga aylandi.

Sosoniylar bilan munosabatlar eftaliylar tarixining eng muhim

yoʻnalishlaridan birini tashkil etdi. Shopur II davridan boshlangan sharqiy kurashlar, xioniyalar bilan vaqtinchalik ittifoqlar, Bahrom V va Yazdigird II davridagi qarama-qarshiliklar eftaliylar yuksalishining dastlabki tarixiy fonini yaratdi. Peroʻz davridagi urushlar esa ushbu qarama-qarshilikni eng keskin bosqichga olib chiqdi. Ayniqsa, Peroʻzning eftaliylar qoʻlida asir tushishi va 484-yildagi halokatli magʻlubiyati eftaliylarning nafaqat harbiy jihatdan, balki siyosiy mavqe jihatidan ham ulkan kuchga aylanganini koʻrsatdi. Kavad davrida esa eftaliylar Sosoniylar ichki siyosatiga ham taʼsir koʻrsata olgan darajaga yetdi.

Kidariylar bilan munosabatlar eftaliylarning siyosiy yuksalishida oʻtish bosqichi vazifasini bajardi. Kidariylar sobiq Kushon siyosiy merosi bilan bogʻliq makonda bir muddat muhim oʻrin egallagan boʻlsa-da, keyinchalik eftaliylar ularning oʻrnini bosib, Toxariston, Baqtriya va Gandhara tomon kengaydi. Demak, eftaliylarning kuchayishi muayyan maʼnoda kidariylar hukmronligining yemirilishi va ularning siyosiy makonini egallash bilan chambarchas bogʻliq edi.

VI asr oʻrtalariga kelib esa eftaliylar davlati yangi va ancha qudratli raqib — Turk xoqonligi bilan toʻqnash keldi. Turk xoqonligi va Sosoniylar ittifoqi eftaliylar davlatining markazlashgan tuzilmasiga hal qiluvchi zarba berdi. Natijada eftaliylar yirik davlat sifatidagi mavqegini yoʻqotdi, mintaqada esa yangi turkiy-siyosiy bosqich boshlandi. Shu bois eftaliylarning Sosoniylar, kidariylar va Turk xoqonligi bilan munosabatlari nafaqat bir davlat tarixini, balki butun Markaziy Osiyo ilk oʻrta asrlar siyosiy taraqqiyoti yoʻnalishini belgilab bergan muhim tarixiy jarayon sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. Vol. II. – London, 2008. – P. 92.
2. Ammianus Marcellinus. Roman History. Vol. II. – London, 1894. – P. 185–187.

3. P'awstos Buzand. History of the Armenians. – Cambridge, Mass., 1989. – P. 198, 217–218.
4. Альбаум А. И. Балалык-тепе. – Ташкент, 1960.
5. Harmatta J. History of Civilizations of Central Asia. Vol. III. – Paris, 1996.
6. Mitchiner M. The Origins and Early History of the Huns and Related Peoples. – London, 1975.
7. Пигулевская Н. В. Византия на путях в Индию. – М.–Л., 1941. – С. 43–45.
8. Дьяконов М. М., Мандельштам А. М. Кочевые племена в Средней Азии в IV–V вв. // Советская этнография. – 1958. – № 1. – С. 345; Губаев А. Из истории юго-западного Туркменистана. – Ашхабад, 1981. – С. 22.
9. Elishē. History of Vardan and the Armenian War. – Cambridge, 1982. – P. 66, 72.
10. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2. – М.–Л., 1950. – С. 169.
11. Errington E., Curtis V. S. From Persepolis to the Punjab. – London, 2007. – P. 86–88.
12. Procopius. History of the Wars. Vol. I. – London, 1914. – P. 25; Christensen A. L'Iran sous les Sassanides. – Copenhagen, 1944. – P. 297.